

**RAXMONOVA ZARIFA NE'MATOVNA***“Alfraganus university”, “Psixologiya” kafedrası dotsent  
Psixologiya fanları falsafa doktori (PhD)***RAQAMLASHGAN JAMIYATDA QADRIYATLAR VA EMOTSIONAL  
INTELLEKT INTEGRATSIYASINING METAKOGNITIV MEXANIZMLARI**

**Annotatsiya.** Raqamlashgan jamiyat sharoitida inson shaxsiyati, uning qadriyatlar tizimi va emotsional intellekt namoyon bo'lish xususiyatlari ijtimoiy-psixologik tadqiqotlarning dolzarb yo'nalishlaridan biriga aylanmoqda. Axborot oqimlarining tezlashishi, raqamli muloqot shakllarining kengayishi va ijtimoiy munosabatlarning transformatsiyasi shaxsdan nafaqat kognitiv qobiliyatlarni, balki o'z hissiyotlarini anglash, boshqarish va ijtimoiy vaziyatlarni baholash qobiliyatini ham talab qilmoqda. Maqolada raqamlashgan muhitda qadriyatlar va emotsional intellekt integratsiyasining metakognitiv mexanizmlari nazariy jihatdan tahlil qilingan. Qadriyatlar shaxsning qaror qabul qilishi, xulq-atvorini boshqarishi va ijtimoiy moslashuvdagi ichki regulyator sifatida qaraladi. Emotsional intellekt esa o'z his-tuyg'ularini anglash, boshqalarning emotsional holatlarini tushunish va munosabatlarni samarali boshqarish imkonini beruvchi psixologik resurs sifatida talqin etiladi. Tadqiqot natijasida raqamli jamiyatda shaxsning metakognitiv nazorati, refleksiyasi va emotsional o'zini boshqarishi qadriyatlar hamda emotsional intellekt uyg'unligini ta'minlovchi asosiy mexanizmlar ekanligi asoslanadi.

**Kalit so'zlar:** Raqamlashgan jamiyat, qadriyatlar, emotsional intellekt, metakognitiv mexanizmlar, shaxs, refleksiya, emotsional o'zini boshqarish, ijtimoiy moslashuv.

**Аннотация.** В условиях цифрового общества проблема интеграции ценностей личности и эмоционального интеллекта приобретает особую социально-психологическую значимость. Ускорение информационных процессов, изменение форм коммуникации и трансформация социальных отношений требуют от личности не только когнитивных возможностей, но и способности осознавать, регулировать собственные эмоции и эффективно взаимодействовать с окружающими. В статье теоретически анализируются метакогнитивные механизмы интеграции ценностей и эмоционального интеллекта в условиях цифровой трансформации общества. Ценности рассматриваются как внутренние регуляторы поведения личности, определяющие выбор целей, принятие решений и социальную адаптацию. Эмоциональный интеллект представлен как способность понимать собственные эмоциональные состояния и эмоции других людей, управлять ими и использовать в процессе взаимодействия. Обосновано, что метакогнитивная регуляция, саморефлексия и эмоциональный

самоконтроль являются ключевыми механизмами гармонизации ценностной сферы и эмоционального интеллекта личности в цифровой среде.

**Ключевые слова:** Цифровое общество, ценности, эмоциональный интеллект, метакогнитивные механизмы, личность, рефлексия, эмоциональная регуляция, социальная адаптация.

**ABSTRACT.** In the context of a digital society, the integration of personal values and emotional intelligence has become an important socio-psychological research issue. The acceleration of information processes, expansion of digital communication and transformation of social relations require individuals not only to possess cognitive abilities but also to understand, regulate emotions and manage interpersonal interactions effectively. This article theoretically analyzes the metacognitive mechanisms of integrating values and emotional intelligence in a digitalized society. Values are considered as internal regulators of human behavior that determine decision-making, life goals and social adaptation. Emotional intelligence is interpreted as the ability to recognize, understand and regulate one's own emotions and the emotions of others. The study emphasizes that metacognitive awareness, self-reflection and emotional self-regulation serve as key mechanisms ensuring the harmony between value orientations and emotional intelligence in the digital environment.

**Keywords:** Digital society, values, emotional intelligence, metacognitive mechanisms, personality, reflection, emotional regulation, social adaptation.

**KIRISH** Zamonaaviy jamiyat taraqqiёti raqamli texnologiyalarning inson haёtining barcha soxalariга chuqur кириб бориши билан характерланади. Raqamlashuv жараёни нафақат иқтисодий ва технологик тизимларни, балки инсоннинг психологик хусусиятлари, ижтимоий муносабатлари ва кадриятлар йўналишини ҳам ўзгартирмоқда.

Raqamli muhitda inson бир вақтнинг ўзида катта хажмдаги ахборотни қабул қилади, тахлил қилади ва унга эмоционал муносабат билдиради. Шу сабабли шахснинг ўз фикрлари, ҳиссиётлари ва ҳаракатларини назорат қилиш қобилияти муҳим психологик компетенцияга айланмоқда.

Кадриятлар инсон фаолиятини тартибга солувчи, унинг қарорлари ва муносабатларини белгилаб берувчи ички психологик тизим ҳисобланади. Манбада таъкидланганидек, кадриятлар шахснинг хулқ-атворини тартибга солувчи ва ижтимоий муносабатларни бошқарувчи омил сифатида намоён бўлади[1].

Эмоционал интеллект эса рақамли жамият шароитида инсоннинг ижтимоий самарадорлигини таъминловчи муҳим психологик механизмдир. У шахсга нафақат ўз ҳиссиётларини англаш, балки бошқа инсонларнинг эмоционал ҳолатларини тушуниш имконини беради.

Шу нуқтаи назардан, рақамлашган жамиятда кадриятлар

ва эмоционал интеллект интегратсиясининг метакогнитив механизmlарини ўрганиш шахсининг психологик барқарорлиги, ижтимоий мослашуви ва маънавий ривожланишини тушуниш учун муҳим илмий аҳамият касб этади.

**Tahlil va natijalar:** Insonni aqliy tarqqiyotini tadqiq qilish bugungi kunda fan oldida turgan muhim vazifalardan biri bo'lib qolmoqda. Emosional intellekt o'zining his-tuyg'ularini tushunish va tan olish, o'z niyatlaridan to'liq xabardor bo'lish hamda ularni va o'zining xatti-harakatlarini boshqara olish qobiliyatidir.

“Emotsional intellekt” tushunchasi ilmiy paradigmaga kiritilishi bilan emosional va bilish jarayonlarining nisbati nuqtai nazaridan tadrijiy o'zgarish yuz berdi. R.Bar-Onning fikricha, “emosional intellekt” tushunchasining shakllanishini Ch.Darvinning nazariyalaridan boshlab kuzatish mumkin. Charlz Darvinning ta'kidlashicha, “Ong kuchli qo'zg'alganda, u yurakka ham bevosita ta'sirini ko'rsata boshlashini kuzatishimiz mumkin. Yurak bu ta'sirni sezganda, u o'z reaksiyasini miyaga yo'naltiradi, bu esa, har qanday qo'zg'alishda ham ahamiyatli o'zaro ta'sir va tananing bu ikki muhim a'zosi o'rtasidagi javob o'ringa ega bo'ladi” deb o'z vaqtida fikr bildirgan edi[2].

Emotsional intellektga doir dastlabki ish 1930 yillarning oxirlarida R.L.Torndayk va S.Shteyn tomonidan o'tkazilgan tadqiqotdir. Tadqiqotchilar ijtimoiy intellektni “Odamlarni tushunish

va ularni boshqarish qobiliyati” sifatida belgilashdi. O'tkazilgan tadqiqotlar natijasida Torndayk va Shteyn ijtimoiy intellekt unitar (birlashgan) qobiliyat sifatida o'lchanishi mumkin degan xulosaga kelishdi.

Tadqiqotlar natijasida asta-sekin intellekt tarkibiy qismlari ko'pligi ilmda tasdiqlandi. Mashhur olim L.Terstoun (1938) ning konsepsiyasini namuna sifatida keltirish mumkin, uning doirasida dastlabki etti aqliy potentsiya ajratiladi. Shunga qaramay, ko'rsatib o'tilgan omillar ichidan (hisob-kitob qobiliyati, verbal qabul qilish, verbal moslashuvchanlik, qabul qilish tezligi, makon orientatsiyasi, assosiativ xotira) muallif emosional ma'lumotni intellektual qayta ishlashga bivosita bog'liq bo'lgan munosabatni topa oldi[3].

D.Veksler umumiy intellektning komponentlarini o'zida aks ettiruvchi, biroq intellektning an'anaviy koeffisientidan farqlanuvchi tafakkur turlari diapazoni mavjudligini birinchi bo'lib ma'lum qildi (IQ). 1940 yilda kamdan-kam havola olinadigan “umumiy intellektidagi nointellektual omillar” maqolasida D.Veksler har bir “to'liq” o'lchamda “umumiy qobiliyatlarning nointellektual jihatlariga e'tiborni qaratdi. Olim “nointellektual elementlar” deganda nafaqat psixikaning umumiy ishga layoqatini, balki uning affektiv-boshqaruv komponentlarini ham tushungan, uning sharofati bilan inson uzoq muddat unga ahamiyatli bo'lgan sohadagi muammolarga bog'lanib

turadi. Shuningdek, maqolada muallif “kognitiv” va “affektiv” deb nomlagan ijtimoiy va emosional qobiliyatlar haqida ham o‘z mulohazalarini bildirgan. Afsuski, bu omillar Vekslarning IQ testiga kiritilmagan, chunki u paytlarda bunga kam e’tibor qaratilgan. Veksler intellektual qobiliyatlarni verbal va noverbal turlarga (tasavvurga bo‘lgan qobiliyat) ajratgan va turli kishilarda u yoki bu guruh ustunlik qilishini ko‘rsatib bergan edi.

Tadqiqotchi R.V.Lipper emotsiyalar faoliyatni chaqirishi, qo‘llashi va yo‘naltirishini aniqlagan. U “emotsional fikr” “mantiqiy fikr” va umuman fikrlashga hissa qo‘shadi, degan taxminni ilgari surdi.

1955 yilda A.Ellis aqliy-emotiv terapiya (Rational Emotive Therapy)ni ishlab chiqdi, bu konsultasiyaga yo‘l bo‘lib, qay tarzda fikrlash yordamida o‘z emotsiyalarini mantiqiy tadqiq qilishni o‘rgatishni o‘z ichiga oladi. Aqliy-emotiv terapiya g‘oyasi shakllanishiga A.Adlerning inson emosional reaksiyalari uning asosiy g‘oyalari, ishonchi, munosabati yoki prinsiplariga bevosita bog‘liq bo‘lib, kognitiv tarzda

yuzaga keladi degan mulohazalari turtki bo‘lgan edi.

Tadqiqotda metodika shkalalari o‘rtasidagi bog‘liqlik qonuniyatlarini tahlil qilish natijalari taqdim etiladi. Avval ta’kidlab o‘tilganidek, ma’lumotlar tadqiqotda foydalanilgan metodikalarning shkalalari normal taqsimlanish qonuniga mos kelmaganligi sababli ular o‘rtasidagi bog‘liqlik qonuniyatlari Spirmen mezonida tahlil qilindi[4].

Xususan, Sh.Shvarsning qadriyatlar so‘rovnomasi bo‘yicha ijtimoiy qadriyatlar hamda Dj.Eyverillning Emosional kreativlik so‘rovnomasi shkalalari orasidagi korrelyasiya koeffisientlari tahlil qilinganida quyidagi qonuniyatlarni kuzatish mumkin. Konformlik va emosional kreativlik shkalalari o‘rtasida o‘zaro aloqadorlik kuzatilmadi. Ya’ni o‘zini bo‘ysunuvchanlik va gapga ko‘nuvchanlik xislati emosional intellektning yuqori yoki past bo‘lishiga bog‘liq bo‘lmas ekan. Shuningdek, an’analar, odatlar qadriyatlari va emosional intellekt ko‘rsatkichlari orasida ham o‘zaro bog‘liqlik mavjud emas ekanligi aniqlandi.

### 1.jadval

**Sh. Shvarsning qadriyatlar so‘rovnomasi bo‘yicha ijtimoiy qadriyatlar hamda Dj.Eyverillning Emosional kreativlik so‘rovnomasi shkalalari orasidagi korrelyasiya koeffisientlari (Spirmen mezonida bo‘yicha)**

| Ko‘rsatkichlar     | Tayyorlik     | Yangilik | Samaradorlik | Autentiklik    | Emosional kreativlik |
|--------------------|---------------|----------|--------------|----------------|----------------------|
| Konformlik         | 0,057         | 0,014    | 0,059        | 0,017          | 0,030                |
| An’analar, odatlar | 0,024         | -0,004   | 0,031        | -0,016         | 0,007                |
| Mehribonlik        | <b>0,098*</b> | 0,083    | 0,080        | <b>-0,106*</b> | 0,056                |

|                       |       |        |        |        |        |
|-----------------------|-------|--------|--------|--------|--------|
| Universallik          | 0,063 | 0,056  | 0,031  | -0,019 | 0,039  |
| Mustaqil fikrlash     | 0,010 | 0,004  | 0,033  | 0,012  | 0,012  |
| Rag'batlanish         | 0,041 | 0,071  | 0,048  | 0,034  | 0,062  |
| Gedonizm              | 0,005 | -0,040 | -0,062 | -0,051 | -0,044 |
| Yutuqlar              | 0,037 | -0,002 | 0,045  | -0,001 | 0,019  |
| Kuch, hokimlik, obro' | 0,066 | 0,049  | 0,047  | 0,065  | 0,073  |
| Xavfsizlik            | 0,060 | 0,032  | 0,064  | -0,011 | 0,037  |

Izoh: \* -  $p < 0,05$

Mehribonlik qadriyati va emosional kreativlik uchun tayyorlik (etarli bilim va tajribaga ega bo'lish) xislati orasida musbat korrelyasion munosabat mavjudligi aniqlandi ( $r=0,098$ ;  $p < 0,05$ ). Mehribonlik shkalasi belgilab berilgan "jamiyatga bog'liq" qadriyat turi hisoblanadi. Ya'ni boshqalarga nisbatan mehribonlikni yuksak darajada qadrlaydigan sinaluvchilarda emosional kreativlik uchun tayyorlik darajasining yuqori bo'lishi aniqlandi. Ya'ni sinaluvchilar qanchalik mehribonlikni qadrlasalar, shunchalik emosional kreativlik uchun tayyorlik xislati yuqori darajada namoyon bo'lar ekan. Ijtimoiy qadriyatlar nuqtai nazaridan mehribonlik va tayyorlik ko'rsatkichlarining bir-biriga bog'liqligi bu ijtimoiy munosabatlar uchun muhimdir[5].

Mehribonlik va autentiklik ( $r=-0,106$ ;  $p < 0,05$ ) shkalalari o'rtasida esa manfiy korrelyasion munosabat mavjudligi aniqlandi. Ya'ni mehribonlik shkalasi bo'yicha ko'rsatkichlarning ortishi samimiylilik va o'zini tutishidagi tabiiylikning pasayishiga olib kelishi mumkin ekan. Universallik, mustaqil fikrlash, rag'batlanish, gedonizm,

yutuqlar, kuch, hokimlik, obro', xavfsizlik qadriyatlari va emosional kreativlik ko'rsatkichlari o'rtasida hech qanday bog'liqlik qonuniyatlari aniqlanmadi. Demak, ijtimoiy qadriyatlar aksariyat holatlarda shaxsning emosional kreativlik darajasiga ta'sir ko'rsatmas ekan.

### XULOSA

Hayotimizdagi vaziyatlarga qanday munosabatda bo'lishimiz biz uchun ko'p narsani hal qiladi. Insonlar bilan ishlash jarayonida ortirilgan tajribalar uning xulosasi to'g'riligini tasdiqlaydi. Munosabat – hissiyotlarimizni shakllantiruvchi paradigmadir.

Shaxslararo munosabat jarayonida nafaqat ma'lumot almashinadi, balki qadriyatlar ham mavjud, ular har bir madaniyatning asosi va poydevoridir. Odamning xulq-atvori va uning hissiy tarkibiy qismi shaxsiy qadriyatlar bilan bir qatorda madaniy qadriyatlarning tartibga soluvchi ta'siriga duchor bo'ladi, boshqalarga yo'naltirilgan tuyg'ular egosentrik tuyg'ularga qaraganda sezilarli darajada madaniyatlararo farqlar bilan ajralib turadi[6].

“Qadriyatlar va emosional intellekt o‘zaro aloqadorligining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari (Oliy o‘quv yurti talabalari misolida)” mavzusi bo‘yicha o‘tkazilgan tadqiqot ishi natijalari quyidagi umumiy xulosalarni shakllantirish imkonini beradi:

“Qadriyat” tushunchasi insonni dunyoga bo‘lgan munosabatlarini xarakterlab berishda nafaqat intellektual shu bilan birga affektivlikni keng ma’noda ishlatilishidir. Qadriyat inson va uni o‘rab turgan borliq bilan bog‘liq holda ular o‘rtasidagi munosabatlarda ko‘rinadi. Inson hayot faoliyati davomida juda ko‘p qadriyatlar tizimi shakllanib boradi. O‘zaro muloqot va o‘zaro ta’sirda qadriyatlar inson ongi va amaliy faoliyatiga asosan emosional intellektning shakllanishi va

rivojlanishiga ta’sir qiluvchi (kognitiv qobiliyat, ma’lumotlarni qayta ishlash tezligi va aniqligi, shaxsning qadriyat yo‘nalishlari, hissiyot xususiyatlari, hissiy barqarorlik, hissiy sezgirlik) kabi omillari aniqlandi;

Qadriyatlar va emosional intellekt o‘zaro bog‘liq bo‘lib, emosional intellektning shakllanishi va rivojlanishiga shaxsning qadriyat yo‘nalishlari, kognitiv qobiliyat, ma’lumotlarni qayta ishlash tezligi va aniqligi, hissiyot xususiyatlari, hissiy barqarorlik, hissiy sezgirlik kabi omillar asosida emosional intellekt bilim va tartibga solish funksiyalarini birlashtirib, asosan biologik omillar bilan, hissiy kompetensiya esa ijtimoiy omillar bilan o‘zaro aloqadorligini ko‘rsatdi.

### ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 2 fevraldagi “Xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash va oila institutini mustahkamlash sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5325-son Farmoni.
2. Shamsiev O‘.B. Oilaviy xolding-bola ijtimoiylashuvining psixologik mexanizmi
3. Nazarov, R.N. (2024). The importance of physical education and sports in the education of young athletes. *american journal of social science*, 2(4), 113-118.
4. Mavlonov, D. "Suzish sporti bilan shug'ullanuvchi yosh sportchilar o'rtasidagi shaxslararo munosabatlarning ijtimoiy-psixologik tahlili." *Uzbekistonda psixologiyani rivojlantirish muammolari: nazariya va amaliyotuyzunligi* (2021): 398-401.
5. Bilolova, Z. B. (2026). The role of cognitive psychotherapy in stabilizing marital relationships and providing psychological services to couples. *World Bulletin of Education and Learning*, 2(2), 83-88.
6. Khujaev, M. (2024). AHMED ZAKI: ON THE IDEAS OF THE PHILOSOPHY OF HISTORY. *Экономика и социум*, (1 (116)), 235-239.